

**TALABALARGA ETNOPEDAGOGIK QADRIYATLARNI TAQDIM ETISHDA
TAYANILADIGAN YONDASHUVLAR**

A.K.Pazilov – *pedagogika fanlari nomzodi, professor*
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

ПОДХОДЫ К ПРЕДСТАВЛЕНИЮ ЭТНОПЕДАГОГИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ СТУДЕНТАМ

A.K.Пазиллов – *кандидат педагогических наук, профессор*
Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

**IN PRESENTING ETHNO-PEDAGOGICAL VALUES TO STUDENTS
RELATED APPROACHES**

A.K.Pazilov – *candidate of pedagogical sciences, professor*
Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch soʻzlar: etnopedagogik qadriyatlar, evolyutsion yondashuv, genetik yondashuv, tizimli yondashuv, etnologik yondashuv, antropologik yondashuv, madaniy yondashuv, ingetrativ yondashuv, kooperant yondashuv, sivilizatsion yondashuv, aksiologik yondashuv.

Rezyume. Maqolada etnopedagogik qadriyat va etnopedagogik yondashuvlar, xususan evolyutsion, genetik, tizimli, etnologik, antropologik, madaniy, ingetrativ, kooperant, sivilizatsion va aksiologik yondashuvlar haqida fikr yuritiladi.

Ключевые слова: этнопедагогические ценности, эволюционный подход, генетический подход, системный подход, этнологический подход, антропологический подход, культурный подход, интегративный подход, кооперативный подход, цивилизационный подход, аксиологический подход.

Резюме. В статье рассматриваются этнопедагогические ценности и этнопедагогические подходы, в частности эволюционный, генетический, системный, этнологический, антропологический, культурный, ингертивный, кооперативный, цивилизационный и аксиологический подходы.

Key words: ethnopedagogical values, evolutionary approach, genetic approach, systematic approach, ethnological approach, anthropological approach, cultural approach, integrative approach, cooperative approach, civilizational approach, axiological approach.

Summary. The article examines ethnopedagogical values and ethnopedagogical approaches, particularly evolutionary, genetic, systemic, ethnological, anthropological, cultural, integrative, cooperative, civilizational and axiological approaches.

Kirish. Xalq pedagogikasi manbalarini uzluksiz taʼlim mazmuniga tizimli tarzda singdirish, tarbiyaning mohiyatini bevosita xalq madaniyati bilan bogʻliqlikda anglashga xizmat qiladi. Oliy taʼlim muassasalarida xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish maqsadida seminarlar, treninglar tashkil etish, talabalarining ushbu yoʻnalishda mustaqil bilim olishlariga alohida eʼtibor qaratish maqsadga muvofiq. Chunki talabalar uchun etnopedagogik qadriyatlarining falsafiy, umumilmiy va pedagogik ahamiyati, mazmun mohiyatini tushunish alohida ahamiyatga ega.

Adabiyotlar taxlili. Uzluksiz taʼlim jarayonida etnopedagogik qadriyatlarni oʻrganish, oʻzlashtirishning ijtimoiy pedagogik ahamiyati P.Abdimuratov [1] Oʻ.Aleuov [2], O.Musurmonova [5], N.S.Safarov [7], A.Tilegenov [9], M.J.Mutalibova [6], A.Tajimuratov [8] kabilar tomonidan tadqiq etilgan. Olimlarimiz tomonidan “Moveraunnaxr xalqlari pedagogikasi” (pedagogika institutlari uchun) dasturi ishlab chiqilgan [3]. Mualliflar tomonidan “Qoraqalpoq etnopedagogikasi” oʻquv qollanmasi tayyorlanilgan [4]. Ushbu tadqiqotchilar tomonidan tayyorlangan materiallarda oʻzbek va qoraqalpoq xalqlari madaniyatining rivojlanishi, shuningdek, taʼlim va pedagogika tarixining rivojlanishi har tomonlama talqin etiladi.

Xalq pedagogikasi jamiyatda roʻy bergan oʻzgarishlarga har doim tezkorlik bilan javob qaytargan va shaxsni ijtimoilashtirish nuqtayi nazardan voqelikka munosabat bildirgan. Mustaqillik yillarida ilmiy jamoatchilik orasida etnopedagogik qadriyatlarga boʻlgan munosabat tubdan oʻzgarib ularning shaxs kamolotida tutgan oʻrnini tadqiq

qilishga boʻlgan qiziqish ortdi. Natijada esa taʼlim-tarbiya mazmuni etnopedagogik qadriyatlar bilan boyitildi.

Hozirgi vaqtda ham etnopedagogik qadriyatlarining tarbiyaviy mohiyati izchillik bilan oʻrganilmoqda. Ushbu yoʻnalishdagi tadqiqotlarda etnopedagogik qadriyatlarining mazmuni ochib berilgan. Taʼlim mazmunining etnopedagogik vositalar hisobiga boyitilishi mazkur qadriyatlar mazmunining talabalar tomonidan anglanishini jadallashtiradi. Taʼlim jarayonida talabalarga ilmiy bilimlar darajasidagi qadriyatlar taqdim etilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday qadriyatlar yordamida xalqning ijtimoiy-madaniy tajribasi oʻzlashtiriladi.

Munozara va tahlillar. Etnopedagogika sohasida amalga oshirilgan izlanishlarning natijalariga koʻra, etnopedagogika va etnopedagogik tadqiqotlarning nazariy-metodologik asoslari pedagogika fani metodologiyasida ishlab chiqilgan yondashuvlarga tayanadi. Shunga koʻra talabalarda etnopedagogik qadriyatlar vositasida axloq-odob koʻnikmalarini shakllantirish jarayonida evolyutsion, genetik, tizimli, etnologik, antropologik, madaniy, integrativ, kooperant, tsivilizatsion, aksiologik yondashuvlarga tayanish maqsadga muvofiq keladi.

Evolutsion yondashuv etnopedagogik qadriyatlarining vaqt davomida bosqichma-bosqich shakllanishi, oʻzgarishi va takomillashuvini hisobga olgan holda oʻrganishga asoslangan yondashuvdir. **Genetik yondashuv** esa ushbu qadriyatlarining kelib chiqish manbalari, ildizlari va avloddan-avlodga oʻtish mexanizmlarini tahlil qiladi. Ushbu ikki yondashuv uygʻun tarzda qoʻllanilganda etnopedagogik merosni tarixiy jarayon sifatida toʻliq anglash imkonini beradi. Mazkur yondashuv talabalarga

milliy qadriyatlarning paydo bo'lish sabablari, turli tarixiy davrlarda ularning mazmunidagi o'zgarishlari, zamonaviy ta'limda saqlanib qolish yoki transformatsiyalanish jarayonlarini izchil anglash imkonini beradi. Natijada talabalar qadriyatlarni statik emas, balki dinamik, taraqqiy etuvchi tizim sifatida qabul qilishga muvaffaq bo'ladilar. Genetik yondashuv orqali talabalar milliy tarbiyaning uzluksizligini ta'minlash, xalq an'analarning turli tumanligi, oila-mahalla-ta'lim muassasalari zanjirida etnopedagogik qadriyatlarning uzluksiz o'zlashtirish zarurligini anglab etadilar. Bu esa milliy tarbiya xalqning tarixiy xotirasi bilan bog'liqligi va ma'naviy vorisligini mustahkamlaydi.

Evolutsion yondashuv yordamida talabalarining tanqidiy va ilmiy tafakkurini rivojlantirib, qadriyatlarni davr talablari bilan qiyosiy tahlil qilish, eski va zamonaviy tarbiyaviy shakllar o'rtasidagi farqni anglash, qaysi qadriyatlar saqlanishi, qaysilarining qayta talqin etilishi lozimligini asoslashga o'rgatadi. Natijada talabalarda ilmiy tahlil faoliyati va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari rivojlantiriladi. Shuningdek evolyutsion yondashuv asosida etnopedagogik qadriyatlar ta'lim bilan singdiriladi, innovatsion pedagogik texnologiyalar milliy tarbiya elementlari bilan boyitiladi. Shu tariqa etnopedagogik qadriyatlarning amaliy ahamiyati ortadi.

Evolutsion-genetik yondashuv bo'lajak o'qituvchilar uchun milliy tarbiya g'oyalarini turli yosh bosqichlariga mos qo'llash, talabalarining etnomadaniy muhitini hisobga olish, ta'limda tarixiy tajriba va zamonaviy ehtiyojlarni uyg'unlashtirish kabi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish imkonini beradi. Etnopedagogika nazariyasida evolyutsion va genetik yondashuvlar etnopedagogik hodisalarning kelib chiqishi va taraqqiyotini ochib berishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Tizimli yondashuv ta'lim-tarbiya jarayonini o'zaro bog'liq, bir-birini to'ldiruvchi va yaxlit holda faoliyat yurituvchi komponentlar tizimi sifatida qarashni nazarda tutadi. Etnopedagogik qadriyatlarni talabalarga etkazishda bu yondashuv xalq pedagogikasi, milliy madaniyat, an'analar, urf-odatlar, axloqiy me'yorlar va zamonaviy pedagogik bilimlarni bir butun tizim sifatida uyg'unlashtirish imkonini beradi. Tizimli yondashuv orqali talabalar etnopedagogik qadriyatlarni alohida-alohida tushunchalar sifatida emas, balki, o'zbek xalqi madaniyatining bir qismi, milliy tarbiya tizimining tarkibiy elementi, shaxs ma'naviy kamolotining omili sifatida baholashga muvaffaq bo'ladilar. Bu esa talabalarining etnopedagogik bilimlarni chuqur o'zlashtirish, qadriyatlarni qabul qilish va hayotiy tajribalariga singdirishga erishadilar.

Tizimli yondashuv talabalarga taqdim etilayotgan qadriyatlarning izchilligi va uzviyligini ta'minlaydi. Natijada nazariya bilan amaliyot orasida uzviy aloqadorlik ta'minlanib, etnopedagogik bilimlar umumiy pedagogika, pedagogika tarixi va madaniyatshunoslik bilan integratsiyalashadi. Tizimli yondashuvda etnopedagogik qadriyatlar talabalarda milliy o'zlikni anglash, ma'naviy-axloqiy barkamollik, ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik pozitsiyasiga egalik tuyg'usini shakllantiradi. Tizimli yondashuv tarbiya jarayonlarini tasodifiy emas, balki maqsadga yo'naltirilgan tarzda tashkil etish imkonini beradi. Tizimli yondashuv talabalarni etnopedagogik qadriyatlarni tahlil qilishga, ularni ta'lim jarayonida qo'llash usullarini o'zlashtirishga, istiqboldagi pedagogik

faoliyatida milliy tarbiya elementlaridan foydalanish kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada etnopedagogik bilimlar amaliy kompetensiyaga aylanadi.

Tizimli yondashuv talabalarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirib, etnopedagogik hodisalarni tizimli tahlil qilish, sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash, milliy tarbiya tajribasini ilmiy asoslash ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadi. Bu esa yosh tadqiqotchilarda etnopedagogik qadriyatlar va bilimlarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Etnologik yondashuv etnopedagogik qadriyatlarni o'zbek xalqining etnik kelib chiqishi, turmush tarzi, urf-odatlar, marosimlari, an'analari, dunyoqarashi va qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog'liq holda o'rganishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv doirasida tarbiya o'zbek xalqining etnik tajribasi va madaniy xotirasi mahsuli sifatida baholanadi. Etnologik yondashuv talabalarga tarbiyaviy g'oyalarining o'zbek xalqi hayoti bilan bog'liqligi, xalq pedagogikasidagi urf-odat, marosim, an'analarning tarbiyaviy funktsiyasi, milliy xarakter va mentalitetning shakllanish omillarini chuqur anglash imkonini beradi. Natijada etnopedagogik qadriyatlar abstrakt tushuncha emas, balki konkret milliy muhit mahsuli sifatida idrok etiladi.

Etnologik yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim talabalarda o'zbek xalqining tarixi va madaniyatiga hurmat, milliy qadriyatlarga ongli munosabat, milliy o'zlikni anglash va milliy g'urur tuyg'usini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa talaba-yoshlarni milliy ildizlardan uzilmagan holda tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bilan birga etnologik yondashuv doirasida qardosh xalqlarning tarbiyaviy tajribalarini qiyosiy o'rganish, ularning umumiy va o'ziga xos jihatlarni aniqlab, madaniyatlararo muloqotga tayyor bo'lishlarini ta'minlaydi. Bu holat talabalarda bag'rikenglik, tolerantlik va madaniy muloqot kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Ta'lim mazmunining pedagogik ahamiyatini oshirishda etnopedagogik qadriyatlar xalq og'zaki ijodi, oilaviy tarbiya an'analari, milliy bayramlar va marosimlar, mehnat va axloq me'yorlari orqali yoritiladi. Natijada ta'lim jarayonining hayotiyligini ta'minlaydi va talabalarining ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etishlariga imkoniyat yaratadi. Bo'lajak o'qituvchilar uchun etnologik yondashuv o'quvchilarning etnomadaniy muhitini hisobga olish, tarbiyaviy ishlarni milliy an'analar asosida tashkil etish, ko'p millatli ta'lim muhitida samarali faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Antropologik yondashuv etnopedagogikada insonni muayyan etnos va madaniy muhit vakili sifatida qarashga asoslanadi. Antropologik yondashuvda tarbiya insonning tabiiy ehtiyojlari, yosh va individual xususiyatlari, etnik mentaliteti va dunyoqarashi bilan bog'liq holda tashkil etiladi. Antropologik yondashuv talabalarga etnopedagogik qadriyatlarni insonning ma'naviy kamolotiga xizmat qiluvchi omil, shaxs rivojining tabiiy va ijtimoiy qonuniyatlari bilan bog'liq hodisa, tarbiyaning insonparvar asosi sifatida anglash imkonini beradi. Bu yondashuv etnopedagogik qadriyatlarni faqat an'ana sifatida emas, balki shaxs taraqqiyotiga xizmat qiluvchi pedagogik manba sifatida talqin qiladi. Antropologik yondashuv doirasida ta'limni talaba shaxsiga yo'naltirishni ta'minlaydi. Bu jarayon talabalarining shaxsiy tajribasi, oilaviy va etnomadaniy muhiti, qiziqish va ehtiyojlarini hisobga olgan

holda tashkil etiladi. Natijada etnopedagogik qadriyatlar talabalar tomonidan ongli ravishda qabul qilinadi va ular uchun shaxsiy ahamiyat kasb etadi. Antropologik yondashuv orqali xalq pedagogikasida milliy qadriyatlarning insonparvarlikka asoslangan mazmuni namoyon bo'ladi. Bu holat talabalarda milliy qadriyatlarni zamonaviy gumanistik g'oyalar bilan uyg'un holda anglash ko'nikmasini shakllantiradi. Antropologik yondashuv etnopedagogik qadriyatlarni taqdim etishda talabalarining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olishga imkonini beradi.

Madaniy yondashuv doirasida ta'lim-tarbiya madaniy hodisa sifatida talqin etiladi. Shaxs esa ushbu madaniy muhitda shakllanib uning ijtimoiy subyektiga aylanadi. Etnopedagogikada ushbu yondashuv xalq pedagogikasini etnik madaniyat, ma'naviy meros, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar tizimi bilan uzviy birlikda o'rganishni nazarda tutadi. Madaniy yondashuv orqali talabalar etnopedagogik qadriyatlarni milliy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida tushunadilar. Ular:

- etnopedagogik qadriyatlarni xalq madaniyatining ajralmas qismi sifatida;
- tarbiyani, madaniy tajribani avloddan-avlodga uzatish mexanizmi sifatida;
- xalq pedagogikasini ma'naviy meros tashuvchisi sifatida baholashni anglatadi.

Bu etnopedagogik bilimlarni yuzaki emas, madaniy mazmun bilan boyitilgan holda o'zlashtirishga xizmat qiladi. Madaniy yondashuv ta'limda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash imkonini beradi. Bunda milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lash, an'anaviylik va zamonaviylik orasidagi muvozanatni ta'minlash, o'zbek xalqi madaniyatini umuminsoniy madaniyat kontekstida anglash uchun qulay sharoit yaratadi. Natijada talabalarda madaniy keng dunyoqarash va bag'rikenglik sifatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Madaniy yondashuv asosida etnopedagogik qadriyatlar ta'lim mazmunining hayotiylikni ta'minlaydi. Madaniy yondashuv etnopedagogik qadriyatlarni shaxs ma'naviy kamolotini ta'minlovchi asosiy manba, ularning xulq-atvoriga axloqiy me'yorlarni singdiruvchi omil, milliy o'zlikni anglash tuyg'usini shakllantirish vositasi sifatida talqin etiladi. Bunday vositalar yordamida talabalarda axloq-odob ko'nikmalari, milliy ong va milliy dunyoqarash rivojlanadi. Madaniy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilar ta'lim-tarbiya jarayonini madaniy muhit bilan bog'lab tashkil etish kompetentsiyasini egallaydilar, o'quvchilarda madaniy kompetentsiyalarni rivojlantirish metodlarini o'zlashtiradilar, milliy tarbiyani zamonaviy ta'lim tizimiga integratsiya qilish ko'nikmalarini egallaydilar.

Integrativ yondashuv oliy pedagogik ta'lim jarayonida etnopedagogik qadriyatlarni o'zlashtirishni tizimli tarzda tashkil etishda tizimli, madaniy, etnologik, antropologik, evolyutsion-genetik kabi yondashuvlarni integratsiyalash mexanizmi sifatida amal qiladi. Ushbu yondashuv etnopedagogik qadriyatlarni yakka yo'nalish doirasida emas, balki yaxlit pedagogik-ma'naviy tizim sifatida ochib berishga xizmat qiladi. Integrativ yondashuv talabalarga o'zbek xalqining etnopedagogik qadriyatlarini o'ziga xos madaniy hodisa sifatida o'rganish imkonini beradi. O'zbek xalqining an'alarini uning tarixiy taraqqiyoti mahsuli sifatida, milliy qadriyatlarni esa millat vakillarining

ma'naviy taraqqiyoti bilan bog'liq holda anglashga ko'maklashadi. Buning natijasida etnopedagogik qadriyatlar xalq tomonidan yaratilgan tarbiyaga oid bilimlar majmui sifatida namoyon bo'ladi. Integrativ yondashuv fanlararo aloqadorlik ko'lamini kengaytirgan holda etnopedagogikani umumiy pedagogika, pedagogika tarixi, etnologiya, madaniyatshunoslik, falsafa va sotsiologiya bilan bog'lab o'rganish imkonini beradi. Bu talabalarda fanlararo tafakkurni shakllantirib, bilimlarni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Integrativ yondashuv asosida milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlar bilan qiyoslangan holda o'rganiladi. Natijada an'anaviy va innovatsion yondashuvlar orasida muvofiqlik ta'minlanadi. Integrativ yondashuv natijasida pedagogik nazariya va amaliyotning uyg'unligini ta'minlaydi. Talabalar etnopedagogik qadriyatlarni real pedagogik jarayonlarda qo'llash ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Bu esa ta'lim jarayonining samaradorligi va hayotiylikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Kooperant yondashuv doirasida talabalar hamkorlikdagi qadriyatli faoliyat tajribasini o'zlashtiradilar. Kooperant yondashuv etnopedagogik qadriyatlarni o'rganish va taqdim etishda turli subyektlar ta'lim muassasasi, oila, jamoa, mahalla, madaniy muassasalar, shuningdek kooperant yondashuv o'qituvchi va talabalarining o'zaro hamkorligini nazarda tutadi. Bu yondashuv doirasida tarbiya alohida bir subyektning ishi emas, balki ijtimoiy xarakterdagi jamoaviy faoliyat sifatida talqin etiladi. Kooperant yondashuv talabalarga etnopedagogik qadriyatlarni jamoaviy tajriba sifatida anglashga yordam beradi. Bunda ular xalq pedagogikasining jamoaviy tabiati, tarbiyaning avlodlar, oila va jamoa orqali amalga oshishi, etnopedagogik qadriyatlarni ijtimoiy tajriba sifatida anglash imkoniga ega bo'ladilar. Natijada etnopedagogik qadriyatlar faqat nazariy bilim emas, balki mavjud amaliyot sifatida qabul qilinadi. Kooperant yondashuv asosida ta'lim muassasasi, oila va jamoa orasida hamkorlik ta'minlab, talabalar etnopedagogik qadriyatlarni kundalik hayotiy faoliyatlarida qo'llash va ulardan tarbiyaviy jarayonlarda samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. U guruhli ish, jamoaviy loyihalar, etnomadaniy tadbirlar, tadqiqot va ijtimoiy faoliyat orqali talabalarni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi hamda ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash imkoniyatini kengaytiradi. Kooperant yondashuv orqali talabalarda ijtimoiy, madaniy va kommunikativ kompetentsiyalar, ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantiriladi. Talabalar kooperant yondashuv asosida tarbiyaviy ishlarni jamoa bilan hamkorlikda tashkil etish, ota-onalar va jamoatchilik bilan ishlash, milliy tarbiyani ijtimoiy muhit bilan uyg'unlashtirish ko'nikmalarini egallaydilar.

Sivilizatsion yondashuv etnopedagogik qadriyatlarni muayyan xalq yoki millatning alohida tajribasi sifatida emas, balki insoniyat sivilizatsiyasining tarkibiy qismi sifatida o'rganishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv doirasida tarbiya tarixiy sivilizatsiyalar Sharq, G'arb, islom sivilizatsiyasi va boshqalar kontekstida talqin qilinadi. Sivilizatsion yondashuv etnopedagogik qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar, dunyoviy madaniyat taraqqiyoti bilan uyg'unlashtiradi. Shuningdek, milliy tarbiyaning umuminsoniy ahamiyatini ochib beradi, talabalarda global va tarixiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

Sivilizatsion yondashuv milliy qadriyatlarni alohida-alohida cheklangan holatda emas, balki tsivilizatsiyalar muloqoti doirasida anglashga yordam beradi.

Aksiologik yondashuv ta'lim va tarbiyani qadriyatlar tizimi orqali tahlil qiladi. Etnopedagogikada ushbu yondashuv xalq pedagogikasini axloqiy, ma'naviy, milliy va ijtimoiy qadriyatlar majmui sifatida o'rganiladi. Aksiologik yondashuv etnopedagogik qadriyatlarni tarbiyaning asosiy mazmuniga aylantiradi. Ushbu yondashuv talabalarda shaxslararo qadriyatli munosabat, insonlarni qadrlash, o'zaro hurmat va mas'uliyat hissini tarbiyalaydi. Aksiologik yondashuv milliy va umuminsoniy qadriyatlarning integratsiyasini ta'minlaydi hamda etnopedagogik ta'limning ma'naviy-axloqiy tarbiya sohasidagi imkoniyatini oshiradi. Ushbu yondashuv doirasida etnopedagogik qadriyatlarning bo'lajak mutaxassisni shaxsiy-kasbiy jihatdan shakllantirish imkoniyati kengayadi.

Etnopedagogik tadqiqotlarning aksariyati tizimli yondashuv prinsipi asosida amalga oshirilmoqda. Turli tuman etnopedagogik qadriyatlar orasida shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lganlarini tanlab olib tizimlashtirgan holda ta'lim mazmuniga singdirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda talabalarda etnopedagogik qadriyatlar vositasida odob-axloq ko'nikmalarini shakllantirishda yuqorida ko'rib chiqilgan barcha yondashuvlarga tayanish, ushbu yo'nalishda samaradorlikka erishish imkonini beradi. Shuningdek, etnopedagogik qadriyatlar vositasida talabalarda odob-axloq ko'nikmalarini shakllantirishda pedagogik turkum fanlari orasidagi integratsiyaga tayanish talab etiladi. Etnopedagogika yosh avlodni oila-mahalla-ta'lim muassasasi hamkorligi zanjirida tarbiyalash va ijtimoiylashtirish muammolarini ham o'z mazmunida mujassamlashtirganligi bilan ham ajralib turadi. Chunki unda xalqning ko'p asrlik ijtimoiy tajribasi mujassamlashgan.

Talabalar etnopedagogik qadriyatlarni o'zlashtirishlari uchun zarur didaktik vositalar va pedagogik shart-sharoitlar

yaratilishi alohida ahamiyatga ega. Etnopedagogik qadriyatlarni o'rganish va o'zlashtirish jarayonida umumiy pedagogika va etnopedagogikaning falsafiy asoslari, uning ijtimoiy-falsafiy ahamiyatini talabalarga etkazish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Etnopedagogikaning mazmuni o'zbek xalqining tarbiyaga oid bilimlarini o'z ichiga oladi. Etnopedagogik qadriyatlar ta'lim-tarbiyaning mazmunini boyitadi.

Etnopedagogik qadriyatlarning mazmun-mohiyatini anglash bilish nazariyasida ishlab chiqilgan "bilim" tushunchasi, pedagogikaning falsafiy asoslari bilan uzviy bog'liq. Yuqorida ta'kidlaganimizdek etnopedagogik qadriyatlarning mazmun-mohiyatini anglash birinchi navbatda o'zlikni anglash tuyg'usini shakllantirishga xizmat qiladi. "Anglash" tushunchasi ham empirik, ham nazariy bilimlarni o'zlashtirish va rivojlantirish shartlaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki o'zbek xalqining pedagogik bilimlari va etnopedagogik qadriyatlari birinchi navbatda falsafiy-siyosiy, ijtimoiy-axloqiy mazmunga ega. U xalqning ko'p asrlik turmush tarzi madaniyati, axloqiy qarashlari, qadriyatlari, ijtimoiy rollari haqida ma'lumot beradi. Mazkur qadriyatlarning nazariy kontseptual asoslari xalqning yosh avlodni tarbiyalashga oid bilimlarining ifodasi hisoblanadi. Mazkur qadriyatlar xalq og'zaki namunalari jamlangan. Ular o'zbek va qoraqalpoq ertaklari, qo'shiqlari, dostonlari, o'yinlari, maqollardan iborat.

Xulosa. Xalq pedagogikasining ayrim jihatlarini anglash va o'zlashtirish asrlar davomida shakllangan bo'lib, tajribani muvaffaqiyatli uzatish, avlodlar vorisligi tartibini saqlab qolishga xizmat qilgan. Milliy-hududiy an'analari ifodalangan xalq pedagogikasi pedagogik bilimlarning muayyan darajasini, insoniyat ma'naviy taraqqiyotining aniq tarixiy bosqichini aks ettiradi. Xalq pedagogikasini yaxlit holda, uning maqsad, vazifalari, shakllari, usul, metodlarini, tarbiya vositalari, omillari, tushunchalarini talabalarga o'rgatish orqali ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Abdimuratov P. «Qaraqalpaq xalqining urp-odat, dasturlari hám olarning jaslar tarbiyasidagi áhmiyeti». – Nókis: «Bilim», 1996.
2. Alewov O. Qaraqalpaqstanda tálim-tarbiyalıq oylardıń qalıplesiwı hám rawajlanıwı. – Nókis: «Bilim», 1993.
3. Qoraqalpoq etnopedagogikasi. Pedagogikalıq institut talabaları ushın o'quv qullanma. – Nókis: «Bilim», 2010.
4. Moveraunnaxr xalqlari pedagogikasi (pedagogika institutlari uchun dastur). – Nókis: «Bilim». 1995.
5. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: «O'qituvchi», 1996.
6. Mutalibova M.J. Xalq pedagogikasi. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2015.
7. Safarov N.S. Progressivnie idei i traditsii narodnoy pedagogiki Uzbekistana. – Tashkent: «Fan», 1989.
8. Tajimuratov A. «Qaraqalpaq xalıq pedagogikasi». – Nókis: «Bilim», 1996.
9. Тилегенов А.Т. Воспитание у подростков духовно-нравственных ценностей средствами народных дастанов (на материале дастана «Алпамыш»). Канд.пед.наук ...дисс.автореф. –Тошкент: 1998.